

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Z.M.Bobur nomli Andijon Davlat Universiteti**

**“Pedagogika” fakulteti
“Musiq va uni o'qitish metodikasi” kafedrası
Jo'raev Shoxjaxon ning**

“Lad va tonalliklar” mavzusida

KURS ISHI



Ilmiy raxbar:

M Nasriddinov.

Andijon 2015

Mavzu: Lad va tonalliklar

REJA :

Kirish.

- 1. Lad va tonalliklar**
- 2. Major va minor kvinta davrasi**
- 3. Major garmonik va melodik**
- 4. Minor garmonik va melodik**
- 5. Parallel - yondosh va nomdosh tonalliklar.**
- 6.Xulosa.**
- 7.Ilova .**
- 8.Foydalanilgan adabiyotlar.**

Kirish.

Yoshlarda musiqa madaniyatini shakllantirishda bastakorlar ijodini o'rganishda oldin biz o'sib kelayotgan yosh avlodga musiqa san'ati haqida ham tushunchalar bermog'imiz darkor.

Musiqa san'ati – avvalo bu shunday san'atki, u insonning o'zi tomonidan yaratiladi va uning o'ziga xizmat qiladi. Inson ikki narsa tufayli mavjuddir biri ruh, ikkinchisi tanadir. Insonda tana bo'lsa-yu ruh bo'lmasa yoki ruhi tushkun holatda bo'lsa, u jonsiz vositaga aylanib qolishi mumkin. Ruhni harakatlantiruvchi, unga kuch bag'ishlab yangi maqsadlar sari etaklaguvchi va eng asosiysi unga ma'naviy ozuqa va madaniy xordiq berguvchi vosita-musiqa san'atidir. San'atning turli qirralari mavjud va har biri kishi ruhiyatiga qaysidir bir tomonlama ta'sir etish uchun yaratiladi. Musiqa san'ti har kimda emas, balki musiqani butun vujudi bilan his qilguvchi va uni tshuna oladigan kishilar tomonidan ijod etiladi.va aynan o'sha kishilarning tasavvur va kechinmalarini.

His tuyg'ularini, ifodaviylik vositalari orqali talqin-qilinadi. Musiqa qadim davrlar mobaynida shakllangan va rivojlanib kelayotgan, ustoz sozandalar tomonidan avlodlar osha bizgacha etib kelib, bugungi yanda takomillashib kelayotgan san'at namunasidir. Musiqa ilmining yaratilishi haqida allomalarimiz o'z ijod namunalari orqali ko'plab manbalar yozib qoldirganlar, uning ijro etilishi tartibini amaliy izohlab berishi tufayli bgun biz musiqa san'ati uning taraqqiy etish jarayonini tasavvur eta olamiz. SHuni ta'kidlash kerakki, bu jarayon to'xtovsiz rivojlanishda bo'lib kelgan va u hech qachon to'xtab qolgan emas. SHu tariqa rivoj topib, o'z qadr qiymatini oshira borgan, o'z navbatida bu sohani harakatlantiruvchi guruhlar shakllangan. Xalqning musiqiy ijodiga bo'lgan yuksak qiziqish va musiqa san'tiga doimiy bizning hududda ham musiqa san'ati yuksak qadr topishiga sabab bo'la olgan.

Musiqa jamiyat hayotining muhim qismidir. U inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, ularni xis –tuyg'ularini o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi.

Buyuk mutafakkirlarimizni musiqani shakllanish tarixi, oldingi asarlarda, qanday cholg'u asboblari yaratilgan, kimlar bu cholg'ularda kuy qo'shiqlar, dostonlar ijro etgan, musiqa o'sha davrda qanday ahamiyatga ega bo'lgan, musiqa insonlarga qanday madad bergan, insonlar musiqadan qanday ozuqa olgan va musiqaning o'sha davrlarda shakllanish tarixi haqida o'quvchilarni tanishtirish xar bir musiqa o'qituvchisi oldida turgan asosiy vazifalardan biri xisoblanadi.

«Musiqaning» elementar nazariyasi kursi musiqa nazariyasining asosi xissoblanadi. Uni o'zlashtirmoq asosiy musiqa elementlar tilini va bir-biriga bog'liqligini chuqur o'rganmoq, musiqa so'zini qonunga muvofiq, xar-xil musiqa-nazariy ko'rinish, tushuncha, ta'rif va terminlar o'quvchilarni musiqa-nazariy o'ylashga va rivojlanishiga yordam beradi. O'quvchilar bilimini musiqa asarini analiz qilishda o'rgangan bilimini tez va erkin qo'llashi lozim. Shuning bilan elementar musiqa nazariya kursi o'quvchilarni boshqa musiqa nazariya fanlariga tayyorlashi

kerak. Garmoniya, Musiqa taxlili cholg'ushunoslik va boshqalarga. Elementar musiqa nazariya fani musiqa didini o'stirishda, Musiqa-estetik tarbiyasini shakillantirishda yordam beradi. Axir nazariyani o'zlashtirilayotganda eng yaxshi xalq kuylaridan, chet el musiqasidan klassikadan, rus va sovet musiqalaridan foydalanadi, faqat eshitib idrok qilishda va xis-tuyg'ulari, kechinmalarni sezish o'quvchilarni badiiy didini rivojlantiradi va tarbiyalaydi.

1.

Lad va tonalliklar

1. Turg'un tovushlar, tonika-T, noturg'un tovushlar va ularning echilishi.

Ladda tayanch tovushlar turg'un tovushlar deyiladi.

Turg'un tovushlardan birortasi boshqalarga qaraganda keskin ajralib turadi va asosiy tayanch rolini bajaradi. Shu turg'un tovush tonika deb ataladi. Turg'un tovushlardan nisbatan ancha kuchsiz bo'lib eshitilgan tovushlarni noturg'un tovushlar deyiladi. Noturg'un tovushlar – turg'un tovushlarga intiladi (tortiladi) va o'tadi, shu tovushlar o'tishini echilish deyiladi.


Turg'un va noturg'un tovushlarning o'zaro munosabat sistemasi LAD deyiladi.

1. Major Ladi.


Xalq musiqasida xar-xil ladlar uchraydi. Lekin asosiy o'rinni Major va Minor egallagan.

Turg'un tovushlar birin ketin yoki birdaniga eshitilsa uchtovushlik majori yoki katta uchtovushlik — akkordni xosil qiladi va major ladi deyiladi.

Tovushlar uchtovushlikda, tertsiya bo'yicha joylashadilar; katta tertsiya + kichik tertsiya.





Gamma tabiiy major.



Pogonalar mustaqil nomga ega.

- 1 — Tonika (T)
- 2 - pastka boshlovchi tovush
- 3 - Medianta
- 4 - Subdominantanta
- 5 - Dominanta
- 6 - Submedianta
- 7 - yukoriga boshlovchi tovush

Xar bir ladning tonikasi, subdominantasi va dominantasi asosiy pog'onalar xisoblanadi, qolganlari esa yondosh deyiladi.



Turg'un tovushlarga - I, III va V pog'onalar kiradi.

Noturg'un tovushlarga - II, IV, VI, VII pog'onalar kiradi.

2. Tonalliklar. Kvinta davrasi. Lad o'rnatishgan pardalar (balandlik) tonalik deyiladi.

Major ladi do tovushdan tuzilsa tonalligi do - major deyiladi. Major tonallik tovushi ko'tarilishi yoki pasayishi xam mumkin. Bunga al'teratsiya belgilari bilan nomlanadi, do - diez major deb. Musiqada 7 ta diezli va 7 ta bemolli tonallik qo'llaniladi. Al'teratsiya belgilari kalitdan so'ng qo'yiladi.

Bir biridan bitta belgi farq qilgan tonalliklar yondosh deb ataladi.

2

MAJOR VA MINOR KVINTA DAVRASI

Diezli tonallik xar 5 pog'onada to'g'ri keladi. Bemolli tonallik xar 4 pog'onada to'g'ri keladi.

Balandligi bir xil, lekin yozilishi turlicha bo'lgan tonalliklarga engarmonik teng tonallik deyiladi. Ular 12 ta dan iborat. Yuqoriga sof kvinta bo'yicha tuzilgan diezli va pastga tomon sof kvinta bo'yicha tuzilgan bemolli major tonalliklarining joylashuv tartibi kvinta davrasi deyiladi.

MAJOR TONALLIKLAR KVINTA DAVRASI

	C- dur	
1	F – dur	G – dur 1 #
2	B – dur	D – dur 2 #
3	Es – dur	A – dur 3 #
4	As – dur	E – dur 4 #
5	Des – dur	H – dur 5 #
6	Ges – dur	Fis – dur 6 #
7	Ces – dur	Cis – dur 7 #

MINOR KVINTA DAVRASI

Minor tonalliklarining umumiy miqdori major tonalliklari singari olti tonallikka ega. Bulardan uchta diezli tonallik va qolgan uchta bemolli tonallikka engarmonik jixatdan teng bo'ladi. Bular Sol diez minor- 1ya bemol minorga teng, Re diez minor - 2mi bemol' minorga teng, 1ya diez minor - 3si bemol minorga teng.

a – moll

1	d-moll	e – moll 1 #
2	g – moll	h – moll 2 #
3	c – moll	fis – moll 3 #
4	f – moll	cis – moll 4 #
5	b – moll	gis – moll 5 #
6	es – moll	dis – moll 6 #
7	as – moll	ais – moll 7 # .

MAJOR

GARMONIK VA MELODIK MAJOR

Musiqada ko'pincha VI pog'ona pasaytiriladi. Major ladida uchraydi va Garmonik major deb ataladi. Garmonik major rus klassik va chet el bastakor asarlarida ko'llaniladi. Pasaytirilgan VI pog'ona asarda tasodifiy belgi deb ataladi.

Musiqada Melodik major kam uchraydi, unda VI va VII pog'onalar pasayadi, tabiiy minorga o'xshab ketadi va asarlarda kuy pastga tomon xarakatlanganda qo'yiladi.

Tabiiy do major



Garmonik do major



Melodik do major





MINOR LADI.

Minor ladi major ladi singari 7 pog'onali bo'ladi. Minor ladi Major ladidan sekundalarning joylashish tartibi bilan farq qiladi.



Tonlar: 1 1/2 1 1 1/2 1 1

pog'o -
nalar: I II III IV V VI VII (I)

Detailed description: A musical staff in treble clef showing the natural minor scale. The notes are A, B, C, D, E, F, G, A. The intervals between notes are indicated by numbers below the staff: 1 (whole), 1/2 (half), 1 (whole), 1 (whole), 1/2 (half), 1 (whole), 1 (whole). The scale degrees are labeled below the staff: I, II, III, IV, V, VI, VII, (I).

Minorda tortilish kuchi II pog'ona - III pog'onaga va VI pog'ona V – pog'onaga tortiladi. Minor uchtovushligi deb kichik uchtovushlikka aytiladi Kich 3 + Kat 3

GARMONIK VA MELODIK MINOR

Garmonik minor tabiiy minordan VII pog'ona ko'tarilishi bilan farq qiladi. Garmonik minorni xususiyati VI pog'ona bilan VII pog'ona orasida ortirilgan sekunda xosil bo'lishi.

Garmonik minor



Tonlar: 1 1/2 1 1 1/2 1 5 1/2

pog'o -
nalar: I II III IV V VI VII (I)

Detailed description: A musical staff in treble clef showing the harmonic minor scale. The notes are A, B, C, D, E, F, G#, A. The intervals between notes are indicated by numbers below the staff: 1 (whole), 1/2 (half), 1 (whole), 1 (whole), 1/2 (half), 1 (whole), 5 (augmented second), 1/2 (half). The scale degrees are labeled below the staff: I, II, III, IV, V, VI, VII, (I).

Melodik minor tabiiy minordan VI va VII pog'ona ko'tarilishi bilan farq qiladi. Melodik gammada yuqoriga tomon xarakat vaqtida VI va VII pogona ko'tariladi, qaytganda esa bekor qilinadi va tabiiy minor qilib chalinadi. Asarlarda qaytishda xam VI va VII pog'onalar ko'tarilgan xolatini uchratish mumkin.



Tonlar: 1 1/2 1 1 1 1 1/2

pog'o -
nalar: I II III IV V VI VII (I)

Detailed description: A musical staff in treble clef showing the melodic minor scale. The notes are A, B, C, D, E, F#, G, A. The intervals between notes are indicated by numbers below the staff: 1 (whole), 1/2 (half), 1 (whole), 1 (whole), 1 (whole), 1 (whole), 1/2 (half). The scale degrees are labeled below the staff: I, II, III, IV, V, VI, VII, (I).

Шошмасдан

Зангори кема

М. Юсупов музикаси

The musical score consists of three staves. The first staff begins with a treble clef, a key signature of one sharp (F#), and a 3/4 time signature. The melody is written on the first staff, with notes marked by 'V' symbols above them. The second and third staves continue the melody, also marked with 'V' symbols. The score ends with a double bar line on the third staff.

Tabiiy ko'rinishdagi major va minorda bir xil tovushlar bo'ladi. Kalit belgisi bir xil bo'lgan major va minor tonalliklari parallel-yondosh tonalliklar deyiladi.

Секин Тойчоғим К. Абдуллаев музыкаси



Секин Песня бобыля Рус халқ қўшиғи



NOMDOSH TONALLIKLAR

Bir xil tonikadan tuzilgan major va minor tonalliklari nomdosh tonalliklar deyiladi. Ular bir birida 3 ta pog'ona bilan farq qiladi. III, VI va VII pog'onalar bilan. C - yoki - c

A - yoki - a .

Lya major A – dur

lya minor a – moll

The image displays two musical staves in treble clef. The first staff is for the Lya major scale (A-dur), with a key signature of two sharps (F# and C#). It shows the notes A4, B4, C#5, D5, E5, F#5, and G#5. The second staff is for the lya minor scale (a-moll), with a key signature of one sharp (F#). It shows the notes A4, B4, C5, D5, E5, F5, and G5. Both scales are presented as ascending and descending half-note pairs, with a double bar line at the end of each.

Шодлик қўшиғи

Ф. Назаров музыкаси

Секин



Қизил байроқ

Г. Собитов музыкаси

Марш темпида



X U L O S A

Maktablarda yosh avlod tarbiyasining barkamolligi yo'lida qilinayotgan say-harakatlar, ta'lim tizimini isloh qilinishi, milliy ta'lim dasturini qabul qilinishi va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi buning yorqin misolidir. Bunda umumta'lim maktablarida olib boriladigan musiqa darslarini ham yangicha uslub asosida tashkil etishlikni taqozo qilmoqda. Buning ijobiy tomonlarini ahtarish borasida talay ishlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi. Ana shu vazifalardan kelib chiqib ushbu Bitiruv malakaviy ishiga ijobiy yondoshishlikni talab qilindi. Ishning mazmuni va mohiyati jihatidan respublikamiz ta'lim tizimida amalga oshirishi zarur bo'lgan dolzarb vazifalardandir.

O'zaro bog'lanib izchil kelgan tovushlar cho'zimi ritm deyiladi. Musiqada tovushlar cho'zimining ketma-ket kelishi natijasida ularning ma'lum vaqt ichida almashib turishiga aytiladi. Tovushlar muayyan tartibda, cho'zimlar bog'langan xolatni ritmik turkum (usul) deyiladi. Musiqada asosiy cho'zimlarga -butun, yarim, chorak, nimchorak va x.k. deyiladi, ularning teng qismga bo'linish natijasida xosil bo'lgan cho'zimlar esa

Tovushlarning ma'lum bir vaqtlarda teng xissalarga bo'lib, almashib turishi musiqada bir tekis xarakatni xosil qiladi (bunday xarakatga pul'sasiya xam deyiladi). Tovushlarni ana shu xarakati vaqtida ayrim xissalar urg'usi ajralib turadi, bu urg'ularga aktsent (zarb) deyiladi. Aktsent tushadigan xissalar kuchli xissalar, aktsent tushmaydigan xissalarga esa kuchsiz xissalar deyiladi. Kuchli va kuchsiz xissalarning tekis almashinib turishi metr deyiladi. Metr xissaning ma'lum bir cho'zimda ifodalanishi- o'lchov deyiladi. Nota chizig'iga skripka kaliti va al'teratsiya belgilaridan keyin qo'yiladi. Musiqa asarining bir kuchli xissadan ikkinchi bir kuchli xissagacha bo'lgan oraligi takt deyiladi, va vertikal takt chizig'i qo'yiladi. Agar musiqa asari kuchsiz xissadan boshlansa takt oldi deyiladi.

Aktsentlar (kuchli xissa) xar bir xissadan keyin takrorlansa ikki xissali metr o'lchovi deyiladi, agar xar ikki xissadan keyin takrorlansa uch xissali metr deb ataladi.

Bir xildagi oddiy metrlarning qo'shilishi natijasida murakkab metrlar xosil bo'ladi. Murakkab metr ikki va undan xam ko'proq oddiy metrlardan tarkib topishi mumkin, shuning uchun bir necha kuchli xissaga egadir. Murakkab metrda birinchi xissa kuchli xissa, keyingilari esa nisbatan kuchli xissa deyiladi.

Ikki yoki bir necha xar-xil ko'rinishdagi oddiy metrlar birlashuvi - murakkab aralash metrlar deyiladi, ifodalovchi o'lchovlar esa aralash o'lchovlar deb ataladi.

Musiqada metrning bir asar davomida o'zgarib turishi, ayni paytda o'lchovning xam o'zgarib turish xollari uchraydi, bunday o'lchovlar o'zgaruvchan o'lchovlar deyiladi.

Ritm va metr aktsentlarining bir-biriga to'g'ri kelmay qolishi, ritmdagi izchillik buzilishiga sinkopa deyiladi.

Xarakat tezligi temp (sur'at) deyiladi. Templar uchta asosiy turga bo'linadi -vazmin, o'rta va tez. Xor, orkestr yoki ansambl uchun yozilgan musiqa asari ijrochiligini boshqarish, keng ma'noda dirijorlik deyiladi.

ILOVA

Major ladi.

Tabiiy major.




Garmonik major



Melodik major (yukoriga tabiiy)



Major kvinta davrasi.



Minor ladi.

Tabiiy minor.



Tonlar: 1 1/2 1 1 1/2 1 1

pog'o -
nalar: I II III IV V VI VII (I)

Garmonik minor



Tonlar: 1 1/2 1 1 1/2 1 5/12 1/2

pog'o -
nalar: I II III IV V VI VII (I)


Melodik minor (kaytishda tabiiy).



Tonlar: 1 1/2 1 1 1 1 1/2

pog'o -
nalar: I II III IV V VI VII (I)

Minor kvinta davrasi.



Parallel va nomdosh tonalliklar.

Parallel tonalliklar.	Nomdosh tonalliklar.
Major va minor bir-biridan 1,5 ton oraligida joylashgan bo'ladi va yondosh deb ataladi.	Bitta pog'onada joylashgan tonalliklar pog'onadosh deyiladi.

- 1.H.Rahimov «Musika elementar nazariyasi bo'yicha mashq va vazifalar to'plami» T.,2006
- 2.O.Azimov “ Garmoniya ” darslik. Nazariy kurs. T., «Qatortol – Kamolot » nashriyoti 2000.
- 3.M.I.Roytershteyn «Основы теоретического музыкознания» М,. «Асадема» nashriyoti 2003.
- 4.H.Rahimov «Garmoniya bo'yicha mashq va masalalar to'plami» T., «Alokachi» nashriyoti 2005.
- 5.Sami Aziz o'gli “Garmoniya ” T., Ozbekiston 2002.
- 6.www. Ziyonet
- 7.<http://www.urairti.ru>
- 8.Ibroximov O., YUnusov .“Solfedjio ” Darsligi T., 2004
9. O'zbekiston – Vatanim manim. III, IV kitob. Sharq . T. 1999, 2000
- 10.M. Karimova “ Musika nazariyasi” uslubiy ro'llanma 2013 Andijon
- 11.M. Karimova “ Solfedjio ” uslubiy ro'llanma 2013 Andijon